

**METHODOLOGICAL ASPECTS OF STUDYING THE
TERRITORIAL FEATURES OF POPULATION MORBIDITY**

Lolaxon Karshibayeva,

Guliston Davlat universiteti

Ekologiya va geografiya kafedrası mudiri, g.f.n., dotsent

Abstract. It is well known that the distribution, structure, and dynamics of diseases are determined not only by biological factors but are also closely related to the natural-geographical environment, ecological conditions, and socio-economic factors. Therefore, a comprehensive analysis of the territorial aspects of population morbidity is of significant scientific and practical importance for sustainable development, public health, and the effective planning of healthcare systems. The study of territorial characteristics of population morbidity includes the assessment of natural-ecological factors, geochemical and geological conditions, environmental status and anthropogenic impact, as well as the influence of socio-economic factors, urbanization, working conditions, and demographic and cultural determinants on public health.

Keywords: ecological conditions, socio-economic factors, urbanization, geochemical factors, demographic factors.

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ
ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ
НАСЕЛЕНИЯ**

Лолахон Каршибаева,

Гулистанский государственный университет,
заведующая кафедрой экологии и географии, к.г.н., доцент.

Аннотация. Известно, что распространение, структура и динамика заболеваний обусловлены не только биологическими факторами, но и тесно связаны с природно-географической средой, экологическим состоянием и

социально-экономическими условиями. В связи с этим комплексный анализ территориальных аспектов заболеваемости населения имеет важное научно-практическое значение для обеспечения устойчивого развития, охраны общественного здоровья и эффективного планирования системы здравоохранения. Изучение территориальных особенностей заболеваемости включает анализ природно-экологических, геохимических и геологических факторов, экологического состояния и антропогенного воздействия, а также влияния социально-экономических факторов, урбанизации, условий труда, демографических и культурных особенностей на здоровье населения.

Ключевые слова: экологическое состояние, социально-экономические факторы, урбанизация, геохимические факторы, демографические факторы.

AHOLI KASALLIKLARINING HUDUDIY JIHATLARINI O'RGANISHNING USLUBIY JIHATLARI

Lolaxon Karshibaeva,

Gulistan State University,

Head of the Department of Ecology and Geography, PhD in Geography, Associate
Professor.

Annotatsiya. Ma'lumki, kasalliklarning tarqalishi, tarkibi va dinamikasi faqat biologik omillar bilan emas, balki tabiiy-geografik muhit, ekologik holat va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu bois aholi kasalliklarining hududiy jihatlarini kompleks tahlil qilish barqaror rivojlanish, jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash tizimini samarali rejalashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Aholi kasalliklarining hududiy jihatlarini o'rganishda tabiiy-ekologik omillar, geokimyoviy va geologik omillar, ekologik holat va antropogen ta'sirni o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning aholi kasalliklariga ta'siri, shaharlashuv va mehnat sharoiti, shuningdek, demografik va madaniy omillarning aholi kasalliklariga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik holat, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, shaharlashuv, geokimyoviy, demografik.

Kirish. Aholi salomatligining hududiy farqlanishi tibbiyot geografiyasi va nozogeografiya fanlarining markaziy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ma'lumki, kasalliklarning tarqalishi, tarkibi va dinamikasi faqat biologik omillar bilan emas, balki tabiiy-geografik muhit, ekologik holat va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu bois aholi kasalliklarining hududiy jihatlarini kompleks tahlil qilish barqaror rivojlanish, jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash tizimini samarali rejalashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

-Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, tibbiy geografik tadqiqotlar, jumladan aholining kasallanish ko'rsatkichlari hamda kasalliklarning hududiy tarkibi masalalari sobiq Ittifoq va hozirgi MDH davlatlari olimlari tomonidan tadqiq qilingan. Ular qatoriga eng avvalo D.K.Zabolotnyy, E.N.Pavlovskiy, A.A.Shoshin, A.V.Chaklin, A.P.Avsyn, E.I.Ignatev, B.B.Proxorov, E.L.Rayx, V.P.Podolyan, A.A.Keller, A.G.Voronov kabilarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, geografik omillar va kasalliklar kelib chiqishi o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilish usuli asosida Gruzija Respublikasida ayrim *parazitar kasalliklarning tibbiy-geografik atlasini* yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. G.M.Maruashvili, L.L.Topuriya va T.L.Bakradzening qayd etishicha ushbu atlas kartalarida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit omillarining parazitar kasalliklar tarqalishiga, patogenlar va tashuvchilarning tarqalishiga, aholining ayrim parazitar kasalliklar bilan kasallanishiga bevosita ta'siri aks ettirilgan.

Keyingi yillarda yaratilgan hududiy tibbiy-geografik atlaslarning alohida ahamiyati, birinchi navbatda, ular sog'liqni saqlash va atrof muhitni muhofaza qilish tashkilotlariga geografik muhit omillarining inson organizmiga salbiy ta'sirining oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ilmiy asoslash imkonini berishidadir. Yaratilgan bunday kompleks tibbiy-geografik atlaslar metodologiyasining asosiy qoidalari A.A. Shoshin (1962), Y.S. Feldman (1977), L.A.Xlebovich (1972) va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Keyinchalik Rossiyada tibbiy-geograf va kartograf olimlar tomonidan aynan tibbiy geografik

tadqiqotlarga bag'ishlangan qator atlaslar yaratilgan. Bu esa mamlakatda bir qator murakkab ekologik muammolarning paydo bo'lishini ilmiy asoslash va sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini tezkorlik bilan amalga oshirish imkonini beradi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Jahonning ko'pgina mamlakatlarida tibbiy geografiyaning bir qator ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan iqlimiy-geografik sharoitlarning aholi salomatligiga ta'sirini aniqlash va tibbiy-geografik kartalarni tuzish bo'yicha tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan: iqlimning inson salomatligiga ta'sirini monitoring qilish usullari ishlab chiqilgan, kasalliklarining tabiiy o'choqlari bo'yicha nozogeografik kartalar tuzilgan; tibbiy ekologiya va inson ekologiyasining nazariy masalalari borasida tahlillar olib borilgan. O'zbekistonda ko'rilayotgan muammoga biroz yaqin sohalar bilan N.Komilova, I.R.Turdimambetov, M.Hamroyev, Salomatlik va tibbiy statistika, Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy-tekshirish institutlari hamda Ijtimoiy fikr markazi mutaxassislari shug'ullanishgan.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ta'kidlash lozimki, avvalo nozogeografik tadqiqotlar *tabiiy-ekologik omillarning aholi kasalliklariga ta'sirini* o'rganadi. Jumladan, iqlim aholi salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy tabiiy omillardan biri hisoblanadi. Havo harorati, namlik, atmosfera bosimi, shamollar va mavsumiy o'zgarishlar inson organizmining fiziologik holatiga ta'sir ko'rsatadi. Ye.N. Pavlovskiy va A.A. Keller tadqiqotlarida issiq va quruq iqlim hukmron bo'lgan hududlarda yurak-qon tomir, nafas olish tizimi hamda suv-tuz almashinuvi bilan bog'liq kasalliklar keng tarqalishi ilmiy jihatdan asoslangan. Sovuq iqlimli hududlarda esa nafas yo'llari kasalliklari, revmatizm, immunitet pasayishi bilan bog'liq kasalliklar ustun keladi. Shu tarzda iqlim aholi kasalliklarining hududiy differentsiatsiyasini belgilaydigan asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Geokimyoviy va geologik omillarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tuproq, suv va havo tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdori aholi salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yod, ftor, selen kabi mikroelementlarning

tanqisligi yoki ortiqchaligi endemik kasalliklarning shakllanishiga olib keladi. Masalan, yod tanqis hududlarda qalqonsimon bez kasalliklari, ftor ortiqcha boʻlgan hududlarda esa flyuoroz keng tarqalgan. V.P. Kaznacheev inson salomatligini geoximik muhit bilan bogʻliq holda tahlil qilib, kasalliklarni inson-biosfera oʻzaro taʼsirining natijasi sifatida baholaydi.

Ekologik holat va antropogen taʼsirni oʻrganish ham nozogeografik tadqiqotlarning muhim jihatidir. Sanoatlashuv, transport tizimining rivojlanishi, qishloq xoʻjaligida kimyoviy moddalardan keng foydalanish ekologik muhitning ifloslanishiga sabab boʻlmoqda. Atmosfera havosining ifloslanishi bronxial astma, allergik va onkologik kasalliklar xavfini oshiradi. Ifloslangan ichimlik suvi esa meʼda-ichak kasalliklari va yuqumli xastaliklar tarqalishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Nozogeografik tadqiqotlarda ekologik omillar hududiy kasallik majmuini shakllantiruvchi asosiy determinant sifatida baholanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning aholi kasalliklariga taʼsiri ham olimlar tomonidan chuqur oʻrganilgan. Jumladan, aholining turmush darajasi va daromadlari ham uning kasallanish koʻrsatkichlariga jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi aholi salomatligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Yu.P. Lisisin taʼkidlaganidek, aholi daromadlarining pastligi, kam taʼminlanganlik, oziq-ovqat sifatining yomonligi kasallanish darajasini oshiradi. Bu holat ayniqsa bolalar va qariyalar salomatligida yaqqol namoyon boʻladi.

Shaharlashuv va mehnat sharoiti ham oʻz navbatida nozogeografik holatga taʼsir koʻrsatadi. Shaharlashuv jarayonlari bir tomondan tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirsa, ikkinchi tomondan stress, gipodinamiya, havo ifloslanishi kabi omillarni kuchaytiradi. Sanoat korxonalarida ishlaydigan aholi orasida kasb kasalliklari, asab tizimi va nafas olish organlari kasalliklari yuqori ulushni tashkil etadi.

Shuningdek, demografik va madaniy omillar ham oʻz navbatida kasalliklarning hududiy tarkibiga, oʻzgarishlar dinamikasiga taʼsir koʻrsatadi. Aholining yosh tarkibi, migratsiya jarayonlari, taʼlim darajasi va sanitariya-

gigiyena madaniyati kasalliklarning hududiy tarqalishida muhim o‘rin tutadi. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilinmasligi, zararli odatlar (chekish, alkohol iste‘moli) yuqori bo‘lgan hududlarda surunkali kasalliklar keng tarqaladi.

Nozogeografik tadqiqotlarda tabiiy va ijtimoiy omillarning kompleks ta‘siri ham chuqur o‘rganiladi. Zamonaviy tibbiyot geografiyasi aholi kasalliklarini alohida omillar emas, balki ularning o‘zaro ta‘siri natijasi sifatida qarashni talab qiladi. Tabiiy-ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar birgalikda **nozogeografik vaziyatni** shakllantiradi. Shu bois hududiy sog‘liqni saqlash siyosatini ishlab chiqishda kompleks, tizimli va hududiy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Nozogeografik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan usullarining mazmun-mohiyatini tahlil qilganda quyidagicha talqin etish mumkin.

Nozogeografik tavsif. Bu usul muayyan hududda aholi salomatligining holati, kasalliklarning tarqalishi, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bog‘liq xususiyatlarni tizimli ravishda yoritib berishni nazarda tutadi. Unda hududning iqlimi, relyefi, suv resurslari, ekologiyasi, aholining yashash tarzi, mehnat sharoiti kabi omillar salomatlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, bunda muayyan hududdagi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-sanitariya sharoitlari hamda kasallanish holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yig‘iladi. Olingan ma‘lumotlar tizimlashtiriladi, ilmiy umumlashtiriladi va sifat jihatdan tahlil qilinadi. Bu esa ushbu hudud aholisi salomatligiga ta‘sir etuvchi barcha omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Nozogeografik xaritalashtirish. Zamon talablariga javob beradigan geografik kartalar ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga tadbiiq qilish ham nazariy, ham amaliy tomondan juda katta ahamiyatga ega. Bu borada aholi salomatligini baholovchi, unga ta‘sir etuvchi tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarni o‘zida aks ettiruvchi tibbiy-geografik kartalar yaratish dolzarb muammo hisoblanadi. Bu usul tibbiy-geografik ma‘lumotlarni xaritalar orqali ifodalashga asoslanadi. Xaritalashtirish orqali kasalliklarning hududiy tarqalishi, sog‘liq uchun xavfli yoki, aksincha, qulay hududlar, tibbiy xizmatlar joylashuvi yaqqol

ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Xaritalar tadqiqot natijalarini tahlil qilish va ular asosida xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Inson organizmining atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasi va o‘zaro bog‘liqligini, turli darajadagi yaxlit geotizimlar shaklida ifodalangan tabiiy muhit sharoitida faoliyat ko‘rsatish xususiyatlarini ko‘p qirrali tarzda aks ettirishdan iborat. Ushbu usulning mohiyati shundaki, u tabiatda bevosita kuzatib bo‘lmaydigan hodisalarni fazoviy tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, muhitning qulaylik (komfortlik) darajasi, uning ifloslanish holati, kasallanish bilan o‘zaro nisbati va boshqalarni aniqlash mumkin. Kartalash usuli ilmiy tadqiqotning ko‘pchilik usullariga xos bo‘lmagan qator xususiyatlarga ega. Bularga abstraktlik, tanlab olish, masshtablilik, uzluksizlik, ko‘rgazmalilik, umumiy qamrov va geografik moslik kiradi. Ana shu jihatlar tibbiy-geografik hodisalarni xaritada keng ko‘lamda ifodalash imkonini beradi. Bu turdagi xaritalar qatoriga klimatologik prognoz xaritalari ham kiradi. Ular iqlimning insonga ta‘sirini baholashga yordam beradi. Ularning mazmuni kompleks meteorologik ko‘rsatkichlarning ehtimoliy taqsimlanishi hamda iqlim turiga bog‘liq holda fiziologik moslashuv tizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zo‘riqish darajasini tahlil qilishga asoslanadi.

3. *Statistik usul.* Statistik usul aholi salomatligiga oid ko‘rsatkichlarni (kasallanish, o‘lim, tug‘ilish, hayot davomiyligi va boshqalar) raqamlar asosida tahlil qilishga xizmat qiladi. U orqali ma‘lum hududlardagi tibbiy-demografik holatni solishtirish, dinamikasini aniqlash va qonuniyatlarni ochib berish mumkin. Tibbiy statistika quyidagilarni aniqlash imkonini beradi:

-aholining umumiy salomatlik holati va uning dinamikasini (davlat yoki uning alohida hududlari bo‘yicha), shuningdek sifat jihatdan bir xil guruhlar (jinsi, kasbi, mehnat staji va boshqalar bo‘yicha)ning muayyan joy va vaqt sharoitidagi salomatlik holatini;

-sog‘liqni saqlash muassasalari va organlarining holati hamda faoliyatini (tibbiy kadrlar, muassasalar tarmog‘i, ularning davolash-profilaktika, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi ishlari ko‘rsatkichlari va boshqalar);

- insonni o‘rab turgan muhitni va uning salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligini (umuman hudud bo‘yicha hamda sifat jihatdan bir xil guruhlar kesimida).

4. *Kompleks tibbiy-geografik yondashuv.* Ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyena, profilaktik, sog‘lomashtirish va boshqa har qanday tadbirlarni tibbiy-geografik tadqiqotlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Bunda kompleks yondashuv muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, tibbiy-geografik jihatdan kam o‘rganilgan o‘zlashtirilayotgan hududlar uchun ushbu yondashuvdan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuv yuqoridagi barcha usullarni o‘zaro bog‘liq holda qo‘llashni nazarda tutadi. Ya’ni inson salomatligi tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarning birgalikdagi ta’siri natijasida shakllanishi hisobga olinadi. Kompleks yondashuv tibbiy-geografik muammolarni chuqur va har tomonlama o‘rganish imkonini beradi.

Tibbiy-geografik tadqiqotni to‘g‘ri tashkil etishda hududni tanlash juda muhimdir. Ko‘plab mutaxassislar fikriga ko‘ra, kompleks tibbiy-geografik tadqiqotlar uchun hududiy-ishlab chiqarish komplekslari (HICHK) doirasidagi hududlarni tanlash maqsadga muvofiq. Ular texnologik va iqtisodiy jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, cheklangan hududda joylashgan hamda uning resurslari va yagona infratuzilmasidan foydalanuvchi ishlab chiqarishlar va korxonalar majmuasidan iborat. Bunday hududlarda inson uchun ehtimoliy xavf zonasi shakllanadi va ular tibbiy-geografik tadqiqotlarda aniqlanishi lozim.

Kompleks tibbiy-geografik tavsif quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Mazkur hududning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari aniqlanadi;
2. Aholi salomatligining holati o‘rganiladi;
3. Aholi salomatligi bilan uni o‘rab turgan muhit o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklari aniqlanadi;
4. Sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarida yetakchi kasbiy guruhlar mehnatini sog‘lomashtirish, atrof-muhitni sog‘lomashtirish, maishiy sharoitlarni ta’minlash, shuningdek hudud aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish va davolash

tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar o'rganiladi. Shuningdek, bunday tadqiqotlarda keng foydalaniladigan usullardan biri sifatida tibbiy geografik prognozlashtirish usuli ham mavjud bo'lib, u tibbiy geografiyaning eng yuqori ilmiy-amaliy ahamiyatga ega, murakkab va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

5. *Nozogeografik prognozlashtirish* - bu muayyan hududda aholi salomatligi holati, kasallanishning hududiy-vaqtli dinamikasi hamda unga ta'sir etuvchi tabiiy, ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarning kelajakdagi ehtimoliy o'zgarishlarini ilmiy asosda oldindan baholashga qaratilgan kompleks tadqiqot usulidir. Ushbu usul tibbiy geografiyaning nazariy bazasini chuqurlashtiradi, amaliy sog'liqni saqlash siyosati uchun ilmiy asos yaratadi, hududiy rivojlanish strategiyalarida inson salomatligini ustuvor mezon sifatida belgilash imkonini beradi.

Xulosalar:

-nozogeografik vaziyatni baholash bilan bog'liq tadqiqotlarda tabiiy omillar tarkibiga relyef, iqlim sharoiti, tuproq qoplami, yer usti va yer osti suv resurslari, o'simlik hamda hayvonot dunyosi kiradi. Hududning iqtisodiy holatini tahlil qilishda esa uning aholi tarkibi va joylashuvi, aholi punktlari tizimi, sanoat va qishloq xo'jaligi rivoji, transport infratuzilmasi hamda tashqi iqtisodiy aloqalari asosiy ko'rsatkich sifatida qaraladi.

-har qanday nozogeografik tadqiqotlar davomida quyidagi an'anaviy usullardan keng foydalaniladi: rayonlashtirish, tibbiy-geografik tavsif, tibbiy-geografik xaritalashtirish va unda GIS texnologiyalaridan foydalanish, statistik, anketa-so'rov, tibbiy-geografik prognozlashtirish, kompleks tibbiy-geografik yondashuv.

Adabiyotlar:

- [1] Komilova N.Q., Soliev A.S. Tibbiyot geografiyasi. -T.: Istiqlol, 2005. -162 s.
- [2] Komilova N.K. Nosogeographical (geo-medical) aspects of the research of natural-territorial system in Uzbekistan // SEGHI 2010 International Conference

and Workshops of the Society for Environmental Geochemistry and Health on Environmental Quality and Human Health National University of Ireland, Galway, Ireland, 2010. 130-131

[3] Komilova N.K., Ravshanov A.K., Karshibayeva L.K., Ishonqulova K.K., Madrahimova Z.N. Some Theoretical and Praktical Issues of Medikal Geographical Research // Indian Journal of Forensic Medicine and Toxicology, 2020, 14 (3), pp. 2086-2092.

[4] Komilova N.K. Inson ekologiyasi va nozogeografik tadqiqotlar. Monografiya. -Toshkent. «Zebo prints», 2023, 208 бет.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (2000-2024-y.)

[6] Proxorov B.B. Zdorove cheloveka kak funktsiya istorii i geografii // Energiya. 2002. -S. 32-36.

[7] Karshibayeva L.K., Umrzaqov O.A., Javlonov A.A. Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hududlarini tibbiy – geografik baholash usullari // Geografiya va ekologiya fanlar tizimining dolzarb muammolari va ularning yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. 13-14 aprel. – Guliston, 2022. –B. 106-109.

[8] Karshibayeva L.K., Ishonqulova K.K., Toymbayeva D.A. Mirzacho‘l tibbiy geografik rayonidagi sog‘lomlashtirish maskanlarining davolovchi tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganligi // Экономика социум ISSN 2225-1545 № 1 (104) 2, 2023, -B. 42-51.